

ARBITRAJ QARORLARINI TAN OLISH VA IJRO ETISHNIG QIYOSIY HUQUQIY TAHLILI

Fazliddin Mardonov

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi

ANNOTATSIYA

Arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish mexanizmlari xorijiy davlatlarda turli xil normative huquqiy hujjatlar va umum e'tirof etilgan xalqaro konvensiyalar asosida tartibga solinib, davlatlarning siyosiy rejimi va o'ziga xos xususiyatlari bilan bir biridan farqlanadi. Anashunday farqlanishlar ma'lum bir holatlarda manfaatdor tomonlar uchun qiyinchilik tug'dirib, qonuniy huquqlarini amalga oshira olmaydi. Ushbu maqolada xorijiy davlatlarda arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish mexanizmlarini qiyosiy huquqiy tahlil qilinadi

Kalit so'zlar: Arbitraj qarorlarini tan olish, Nyu-York Konvensiyasi, UNCITRAL, Parijda Xalqaro savdo palatasi, Arbitraj bitmi hamda izohi.

O'zbekiston Respublikasi hududida chet el davlatlari sudlari va xalqaro arbitraj sudlarning qarorlarini tan olish hamda ularni ijro etish etilishi mamlakatimizning bugungi kundagi xalqaro huquqiy faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1995 yil 20 dekabrda qabul qilingan qarorga binoan O'zbekiston Respublikasi 1958 yil 10 iyundagi "Chet el davlatlari hakamlik qarorlarini e'tirof va ijro etish haqida"gi Nyu-York Konvensiyasiga qo'shilgan davlatlar tarkibiga kiradi. Ushbu Konvensiya qatorida mamalakatimizda chet el davlatlari hakamlik sudlari qarorlarini e'tirof va ijro etishni tartibga soluvchi va boshqa xalqaro hujjatlar ham amaldadir. Jumladan, 1992 yil 20 martda Kiyev shahrida MDH davlatlari rahbarlari tomonidan shu davlatlar xo'jalik subyektlari o'rtasida shartnomaviy va boshqa fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiqqan nizolarni ko'rib hal etish, hamda ular bo'yicha qarorlar ijrosini ta'minlash haqidagi Bitim imzolangan. Bundan tashqari, Minsk shahrida 1993 yil 22 yanvarda MDHga a'zo davlatlar tomonidan "Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida" Konvensiya imzolangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi bir qator davlatlar bilan chet el sudlari va xalqaro arbitraj sudlarning qarorlarini tan olish hamda ularni ijro etishda huquqiy yordam ko'rsatish bo'yicha ikki taraflama Shartnomalar tuzgan.

Nyu-York Konvensiyasi chet el davlatlari hakamlik sudlarida xalqaro arbitraj sudlarning qarorlarini qay tartibda tan olish hamda qanday ijro etilishi lozimligini,

shuningdek, chet el davlatlari hakamlik sudlari qarorlarini ijro etish holatlarini belgilaydi.

Ta'kidlash joizki, Nyu-York Konvensiyasi, shuningdek Chet el sudlari va Xalqaro arbitraj sudlariga oid Bitim va Shartnomalarni qabul qilgan har bir davlat Konvensiya ishtirokchilarining hakamlik sudlari qarorlarini e'tirof etishlarini va ularning ijrosi so'ralayotgan davlat hududida amalda bo'lgan huquqiy me'yorlar asosida ijro etilishini ko'zda tutadi.

So'nggi paytda O'zbekiston Respublikasida sudlar faoliyatiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ular faoliyatidagi ochiqlik, adolat mezonlariga og'ishmay amal qilish va shaffoflik, xalq bilan muloqot kabi xususiyatlar sudlar faoliyatiga tobora o'z aksini topayotganligi namoyon bo'lmoqda. Bu borada, ayniqsa keyingi 5 yil mobaynida sud-huquq sohasidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha 40 dan ortiq farmon va qarorlar qabul qilinganligi sohadagi bir qator muammolar yechimiga xizmat qildi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Adolat bu – davlatchilikning mustahkam poydevoridir. Adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda esa sud hokimiyati hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, bu borada hali qiladigan ishlarimiz juda ko'p. Bu borada "bir sud – bir instansiya" tamoyili sud qarorlarining adolatli, qonuniy va barqarorligini ta'minlashda bosh mezon bo'lishi lozim"

Bugungi kunda sud-huquq sohasidagi ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida xalqaro arbitraj qarorlarini tan olishning huquqiy asoslarini zamon talabalariga asosan ishlab chiqishdir.

Ta'kidlash lozimki, Xalqaro Arbirtaj xususiy sudlov tizimi hisoblanadi. Xalqaro tijorat arbitraji bu nizolashuvchi taraflar tanlangan arbitrlar tomonidan nizolarini ko'rib chiqish tartibi bo'lib, "Tashqi savdo (xalqaro tijorat) arbitraji" atamasi birinchi marta 1961 yildagi Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risidagi Yevropa konventsiyasida o'rnatilgan va keyinchalik bu 1985 yildagi Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risidagi UNCITRAL namunaviy qonunida mustahkamlangan. Xalqaro tijorat arbitraji tushunchasi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun "arbitraj", "xalqaro", "tijorat" ("tijorat") so'zlari (xalqaro tijorat arbitrajidan) nimani anglatishini aniqlash zarur⁵³.

"Arbitraj" tushunchasini uch ma'noda ko'rib chiqish mumkin:

- 1) hakamlik sudi, muqobil yurisdiksiya organi;
- 2) nizolarni hakamlik sudida ko'rish jarayoni, mexanizmi;
- 3) muayyan nizoni ko'rib chiquvchi xalqaro arbitraj sudining tarkibi.

Ushbu xilma-xil tushunchalar arbitration, arbitrage, schiedsgerichtsbarkeit, arbitrato kabi xorijiy so'zlarning etimologiyasi bilan bog'liq bo'lib, umumiy ma'noda subyektlari ikki yoki undan ortiq taraf bo'lgan nizoni boshqa shaxs yoki vakolati

⁵³ Emerson F. D. History of arbitration practice and law //Clev. St. L. Rev. – 1970. – T. 19. – C. 155.

bo'lgan shaxslar tomonidan ko'rib chiqilishini anglatadi. Bunda ko'rib chiqish jarayonida davlatning ta'sir kuchidan emas balki, balki xususiy kelishuvga asoslanadi.

Arbitraj sudlari davlatlarning umumiy yuridiksiya sud ancha avval vujudga kelgan, vujudga kelish tarixi Qadimgi Rim davlatiga borib taqaladi. Dastavval hakamlik sudlari nizolashayotgan tomonlarning o'z tashabbuslari bilan tuzilib, uning qarorlari ijrosini ham davlat aralashuvisiz mustaqil ravishda amalga oshirilgan. Imperator Yustinian zamonida hakamlik qarorlari davlat kuchi – majburlovi orqali bajarilishi belgilangan. Arbitraj sudi deganda, savdo-iqtisodiy nizoni nizolashayotgan tomonlar tanlagan va kelishib vakolat bergan bir yoki bir necha jismoniy haxslarning ko'rib hal etishi, ular davlat sud tizimiga mansub bo'lmasa-da, chiqargan qarorlari majburiy tarzda bajariladigan xolis organ nazarda tutiladi. Xalqaro tijorat arbitrajining jadal rivojlanishining yangi bosqichi XVIII XIX asrlarda xalqaro savdoning faol o'sishi bilan boshlandi. Bu davrda dastlabki ko'rinishdagi birinchi doimiy arbitraj institutlarining shakllandi. 1912-yilda Xalqaro Savdo-sanoat palatalari kongressi Bostonda bo'lib o'tgan yig'ilishda xalqaro sohada yuzaga keladigan nizolarni hal qilish uchun xalqaro-huquqiy normalarni yaratish zarurligini tan olgan rezolyutsiyani qabul qildi. Xalqaro arbitrajning rivojlanishidagi muhim qadam 1914 yil 10 iyunda Parijda Xalqaro savdo palatasining tashkil etilishi bo'ldi.

Arbitraj sudlari nizolashvchi tomonlarga katta erkiliklar beradi. Xalqaro arbitraj sudlarining afzaliklari juda ko'pdir. Birinchi sababi xalqaro arbitraj sudlari qarorlarining ijro etish masalasi xalqaro konvensiya bilan mustahkamlangan⁵⁴. Bundan tashqari biror bir davlatning umumiy yuridiksiya sudlaridan mustaqil ekanligi. Xususan, nizolashayotgan tomonlarning hech biri ikkinchi bir tomonning davlat sudlarida nizoni hal etishni istamaydi. Buning sababi, ikkichi bir tomonning milliy sudi ustunligi va ularga yon bosishidan xavfsiraydi. Anashunday holatda nizolarni hal etishda xalqaro arbitraj sudlari muhim rol o'ynaydi. Tomonlarning roziligi Arbitrlarning nizolarni hal etishda eng muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ayni paytda taraflarning kelishuvi orqali arbitirlarning nizoni ko'rib chiqishdagi vakolatlarini cheklashi mumkin. Xususan, Arbitirlar bunday holatda faqat tomonlarning kelishuvidagi nizoli masala yuzasidan qaror qabul qila oladilar.

1958-yil 10-iyunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining diplomatik konferensiyasi tomonidan qabul qilingan va 1959-yil 7-iyunda kuchga kirgan "Xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risida"gi⁵⁵ konventsiyasi (odatda Nyu-York konventsiyasi deb nomlanadi) asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi.

⁵⁴ United Nations Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards, 1958, UN DOC/E/CONF.26/8/Rev.1 ("New York Convention").

⁵⁵ Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards Done at New York, 10 June 1958; entered into force, 7 June 1959 United Nations, Treaty Series, vol. 330, p. 38, No. 4739 (1959)

Nyu-York konventsiyasi bugungi kunda amalda bo'lgan eng ko'p davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan shartnomalardan biri hisoblanadi. Nyu-York konventsiyasi asosan, arbitraj qarorlari chiqarilgan davlatdan boshqa davlatlarda tan olinishi va ijro etilishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi.

Nyu York konventsiyasi chet el sudlarini qarorlari va arbitrajlar qarorlarini tan olish va ularning ijrosiga nisbatan qo'llanilib bunda nizolashuvchi tomonlar jismoniy yoki yuridik shaxslar ham bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ularning tan olinishi va ijro etilishi talab qilinadigan davlatda ichki qarorlar qabul qilinmaydigan arbitraj qarorlari uchun ham qo'llaniladi. Har bir ratifikatsiya qiluvchi davlat tomonlar hakamlik muhokamasining mavzusi bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday shartnoma yoki boshqa huquqiy munosabatlar munosabati bilan ular o'rtasida yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha yoki har qanday nizoni arbitrajga o'tkazish majburiyatini olgan yozma bitimni tan oladi.

Xitoy xalq Respublikasida xorijiy davlat sudlarining qarorlarini va arbitraj qarorlarini tan olish tartibini tushuntiradigan bo'lsak, tomonlardan biri Xitoydagi mahalliy sudga xorijiy sud qarori yoki arbitraj qarorini tan olish va/yoki ijro etish uchun murojaat qiladi. Tan olish va ijro etish to'g'risidagi arizalar odatda Xitoy mahalliy sudiga bir vaqtning o'zida yozma va elektron beriladi.

Ushbu Ariza yoki iltimosnoma sud qarori yoki qaroriga qarshi qaror chiqarilgan tarafning yashash joyi yoki bunday tarafning mol-mulki joylashgan joydagi mahalliy sudga beriladi. Bilamizki, Xitoy anglo-sakson huquq modelidan foydalanmaydi, shuning uchun "sud pretsedentlari" qo'llanilmaydi. Xitoy qonunchiligi belgilangan qonunlarga asoslanadi. Shunga qaramay, Oliy xalq sudi yoki yuqori sudlar tomonidan qabul qilingan sud qarorlari quyi sudlar tomonidan nizolarni hal qilishda foydalanishi mumkin.

Xitoy sudlari xorijiy sud qarori yoki arbitraj hal qiluv qarorini tan olish va ijro etish jarayonida asosiy nizoning mohiyatini qayta ko'rib chiqmaydi. agar bunday ko'rib chiqish tegishli shartnomalarda yoki tan olish va ijro etishni rad etish uchun asos mavjudligini aniqlash uchun talab qilinmasa. (masalan, davlat suvereniteti, xavfsizligi yoki jamoat manfaatlarini yoki XXR Fuqarolik protsessual qonunining 274-moddasida nazarda tutilgan holatlarni buzish). Xitoy qonunchiligida chet elning hal qiluv qarorini yoki arbitrajning hal qiluv qarorini tan olish yoki ijro etish to'g'risida qaror qabul qilishi kerak bo'lgan umumiy muddat yo'q. Bu ko'p jihatdan masalaning shartlariga bog'liq. XXR Fuqarolik protsessual qonunini qo'llash bo'yicha Oliy xalq sudining sharhining 548-moddasiga muvofiq, xalq sudining chet elning hal qiluv qarorini yoki arbitrajning hal qiluv qarorini tan olish va ijro etish to'g'risidagi ajrimi tegishli shaxslarga topshirilgandan keyin kuchga kiradi. Ushbu ajrim yakuniy bosqich hisoblanadi. Va bu ajrim ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas.

Xitoy hududidagi xorijiy sud qarorlarini tan olish va ijro etish Fuqarolik protsessual qonuni va Oliy xalq sudi tomonidan qabul qilingan Fuqarolik protsessual qonunining alohida talqini bilan tartibga solinadi.

Korea Respublikasida chet el sudlarining qarorlarini va arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish tartibini yoritadigan bo'lsak, Ijro etilishi mumkin bo'lgan xorijiy sud qarori yakuniy qaror bo'lishi yoki sudning unga tenglashtirilgan ajrimi bo'lishi kerak. Shuningdek, u xususiy shaxslar ishtirokidagi fuqarolik ishlari bilan cheklanadi. Sud qarori faqat kelajakda shikoyat qilish imkoniyati mavjud bo'lmagan taqdirdagina yakuniy hisoblanadi. Bu birinchi shart.

Korea Fuqarolik protsessual qonuni (CPA) 217-moddasiga muvofiq Sud quyidagi to'rtta talabga javob bersa, xorijiy sud qarorini ham ijro etishi mumkin;

Xalqaro yurisdiksiya. Xorijiy sudning xalqaro yurisdiksiyasi qonun hujjatlari yoki shartnomalar bo'yicha xalqaro yurisdiksiya tamoyillariga muvofiq tan olinishi kerak. Majburiy sud odatda partiya yoki ish va forum o'rtasida "moddiy munosabatlar" mavjudligini tekshiradi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish anglo-sakson va roman german davlatlarida turli xil mexanizmlarda amalga oshirilsada, ularning umumiy mohiyati bir xildir. Misol uchun bunday umumiyliklar arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish bo'yicha sudlarga beriladigan arizalar va ularning ilovalari, sud jarayonlarining bosqichlari deyarli bir biriga o'xshashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

I. Milliy normativ huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
Manba: <https://lex.uz/docs/-20596>
2. O'zbekiston Respublikasining huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi xalqaro shartnomalari
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Manba: <https://lex.uz/docs/-3517337>
4. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi. Manba: <https://lex.uz/acts/-3523891>
5. "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi O'RQ-674-sonli 16.02.2021 yildagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.
Manba: <https://lex.uz/docs/-5294106>
6. "Sud hujjatlari va boshqa organ hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.
Manba: <https://lex.uz/acts/-26477>

II. Xorijiy davlatlarning normativ huquqiy hujjatlari.

7. Korea Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. Manba: https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=38478&lang=ENG

8. Xitoy Xalq Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. Manba: http://www.npc.gov.cn/zgrdw/englishnpc/Law/2007-12/12/content_1383880.htm#:~:text=Article%20%20The%20Civil%20Procedure,afirm%20civil%20rights%20and%20obligations%2C

III. O‘quv qo‘llanmalar va adabiyotlar.

1. Emerson F. D. History of arbitration practice and law //Clev. St. L. Rev. – 1970. – T. 19. – C. 155.

2. Drahozal C. R., Friel R. J. Consumer Arbitration in the European Union and the United States //NCJ Int’l L. & Com. Reg. – 2002. – T. 28. – C. 357.

3. United Nations Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards, 1958, UN DOC/E/CONF.26/8/Rev.1 (“New York Convention”).

III. Elektron resurslar:

1. www.lex.uz

2. <https://www.sciencedirect.com>

3. <https://strategy.uz>

4. <https://www.norma.uz>.